

SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA GILOS O'SIMLIGINI QALAMCHA PAYVAND QILISHNING MAQBUL MUDDATLARI

U. X. Turakulov¹

E.E.Temirov¹,

Z.A.Abdikayumov²

¹O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi

²Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada gilos o'simligini qalamcha payvand qilishda komponentlarning anatomik birikib ketishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan maqbul payvand muddatini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari berilgan. Bunda gilos payvandtaglari va payvandust navlar novdalarining anatomik birikib ketishi va tutuvchanligini o'rganish asosida, qalamcha payvand qilishning optimal muddatlari tavsiya etilgan. Ushbu muddat gilos o'simligida fevral oyining ikkinchi o'n kunligiga to'g'ri kelishi tajribalar bilan isbotlangan. Tadqiqot ob'ekti sifatida gilosning istiqbolli Sammit va Burlat navlari va Colt payvandtagi xizmat qilgan.

Tayanch so'zlar: gilos, nav, payvandtag, payvandust, qalamcha, payvand, tutuvchanlik, ko'chat.

Gilos dunyoning ko'pgina mamlakatlarida suyib iste'mol qilinadigan mevalardan hisoblanadi. Ushbu qimmatli danakli mevaga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Gilos yetishtirish hajmi bo'yicha O'zbekiston dunyoda Turkiya, AQSh va Erondan keyingi to'rtinchi, eksport salohiyati bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallaydi [1].

Respublikamiz tuproq iqlim sharoitida yetishtirilgan ushbu mevalarning tabiiy ta'm sifatlari va biokimyoviy tarkibi beqiyos bo'lib, ularning eksportiga ko'plab davlatlardan talab tushmoqda. Bu esa ushbu mevalarning yalpi hosilini oshirish hisobiga ham ichki bozorni, ham eksport salohiyatini oshirish mumkinligiga dalolat qiladi. Ta'kidlash joizki, respublikamizda ushbu mevali o'simlik bog'laridan olinayotgan hosil va ularning sifatini talab darajasida deb bo'lmaydi. Aksariyat gilos



bog'larida yetishtirilayotgan hosil sifati jahon andozalari talablariga mos kelmaydi. Buning boisi aksariyat hollarda navlarning eskirganligi, bog'larning kuchli o'suvchi payvandtaglarga asoslangan ekstensiv holati, bunday bog'larda daraxtlarning notekis rivojlanayotganligi, mevalarining notekis yetilishi va boshqa noxush holatlar kuzatilmoqda [2, 3].

Gilos navlarining genofondini boyitish, uning istiqbolli navlarini o'rganish va ko'paytirish borasida O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasida bugungi kunda amaliy ishlar yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda stansiyaning gilos genofondida 6 ta – Sammit, Merchant, Burlat, Vanda, Lapins, Skina kabi istiqboli navlarning ona bog'lari barpo etilgan bo'lib, ularni jadal ko'paytirish va sifatli ko'chat yetkazib berish dolzarb vazifa hisoblanadi

Ma'lumki, Surxondaryo viloyatining yozgi mavsumi jazirami issiq bo'lishi bilan alohida ajralib turadi. Shu bois respublikada umum qabul qilingan muddatlarda danakli mevalarni kurtak payvand qilishda komponentlarning issiqdan ko'plab nobud bo'lishi qayd etiladi. Qalamcha payvand qilish esa qishki davrda o'tkazilganligi bois, tutuvchanlik kurtak payvandga nisbatan yuqori foizlarda bo'ladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib biz o'z tajribalarimizda gilos payvandtaglariga qishki qalamcha payvand qilishning maqbul muddatini aniqlash bo'yicha tajriba olib bordik.

Tajriba 2019-2022 yillarda O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasida amalga oshirildi. Tajribalarda V.N.Zemlyanovning "Zimnyaya privivka plodovyx kultur" [4] uslubiy adabiyotida keltirilgan tavsiyalarga asoslanildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida gilosning istiqbolli Sammit va Burlat navlari va Colt payvandtagi xizmat qildi. Payvandtag o'simliklar va madaniy nav novdalari fevral oyining birinchi, ikkinchi va uchinchi o'n kunligida hamda mart oyining birinchi o'n kunligida laboratoriya sharoitlarida qishki payvand qilindi. Payvand qilingan komponentlar sterillangan nam taxta qirindisiga gorizontol holatda ko'milgan hoda 20-25 °C haroratda bir hafta mobaynida stratifikatsiyaga joylashtirildi. So'ngra komponentlar doimiy joyga – ko'chatzorning ikkinchi dalasiga o'tqazilguniga qadar istilmaydigan plyonkali issiqxonalarga (mart oyining o'rtalari) ildiz qismi ko'milgan holda joylashtirildi (rasm). Tuproq namligi 75-80% atrofida ta'minlandi.






1-rasm. Qalamcha payvand qilingan gilos navlari komponentlarining ko'chatzorning ikkinchi dalasiga o'tqazilguniga qadar saqlanishi

Mart oyining o'rtalaridan boshlab, ob-havo sharoitlariga bog'liq ravishda payvand qilingan komponentlar ko'chatzorning ikkinchi dalasiga 70x20 sm sxemada (71428 dona/ga) o'tqazildi. O'tqazilgan jami o'simliklarga nisbatan tutib ketganlarining soni vegetatsiya davrida hisob qilindi va standart talablari asosida saralandi.

Kuzatuv ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, qishki qalamcha payvand qilish muddati gilos o'simligi komponentlarining tutuvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bunda payvand qilingan komponentlar gilosning Sammit va Burlat navlari komponentlarining eng yuqori – 92,7% va 91,9% tutuvchanligi qalamcha payvand fevral oyining ikkinchi o'n kunligida o'tkazilgan tajriba variantida qayd etildi (2-rasm).





2-rasm. Qishki payvand qilish muddatlarining gilos navlari tutuvchanligiga ta'siri, %

Rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, qalamcha payvandni juda erta boshlash, yoki aksincha uni kechiktirish tutuvchanlikning pasayishiga olib keldi. Binobarin, eng past tutuvchanlik gilos payvandtaglariga navdor qalamchalar mart oyining birinchi o'n kunligida payvand qilingan variantda qayd etildi. Ushbu tajriba variantida tutib ketgan o'simliklarning miqdori jami o'tqazilgan o'simliklarga nisbatan 51,7-53,6% dan oshmadi. Qolgan payvand qilish muddatlarida tutgan o'simliklarning miqdori ushbu tahlil qilingan tajriba variantlari o'rtasida oraliq ifodaga ega bo'ldi.

Vegetatsiya so'ngida – tayyor ko'chatlarda xazonrezgilik yakuniga yetgach, ko'chatlar qazib olinib, O'ZDST 1192:2009 [5] bo'yicha saralandi va 1, 2 navlar va kelgusi yil yetiltirib olish uchun ko'chatzorning 3-dalasiga o'tqaziladigan 3-navlarga ajratildi. Sralash natijalari shuni ko'rsatdiki, qazib olingan jami ko'chatlarga nisbatan 1 va 2-nav ko'chatlarning eng ko'p chiqishi ikkala navda ham payvandtaglarga navdor qalamchalar fevral oyining ikkinchi o'n kunligida payvand qilingan tajriba variantida qayd etildi. Bunda 1 va 2-nav ko'chatlar Sammit navida mos holda 60255 va 4635 dona, Burlat navida 59537 va 4267 donani tashkil etdi (jadval).

Jadval-1 Qishki qalamcha payvand muddatiga bog'liq ravishda gilos navlari standart ko'chatlarining chiqishi

Qishki qalamcha payvand muddati	Jami ekilgan ko‘chatlar	Tutgan ko‘chatlar	Standart ko‘chat chiqishi		
			1-nav	2-nav	3-nav (etilti-rishga)
Sammit navi					
1-10/II	71428	55642	49441	4780	1421
11-20/II	71428	66214	60255	4635	1324
21-28/II	71428	56070	49210	5324	1536
1-10/III	71428	40214	32991	4619	2604
Burlat navi					
1-10/II	71428	54142	47874	4561	1707
11-20/II	71428	65642	59537	4467	1638
21-28/II	71428	52571	46150	4662	1759
1-10/III	71428	36928	30286	4791	1851

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, eng kam ko'chat chiqishi payvand qilish mart oyining birinchi o'n kunligida amalga oshirilgan tajriba variantida kuzatildi. Ushbu tajriba variantida jami olingan 1 va 2-nav ko'chatlar soni Sammit navida mos holda 32986 va 4619 dona, Burlat navida 30286 va 4791 donadan oshmadi. Alohida ta'kidlash joizki, ko'chatzorning 3-dalasiga etiltirish uchun olib qolingani, ya'ni 3-nav ko'chatlar soni ham aynan ushbu tajriba variantida qayd etildi. Bunday ko'chatlar miqdori Sammit navida 2604 va Burlat navida 1851 donani tashkil etdi. Qolgan navlarda standart ko'chatlar chiqishi ushbu tahlil qilingan variantlar o'rtasida oraliq ifodaga ega bo'ldi.

Xulosa

Surxondaryo viloyati sharoitida gilos payvandtaglariga navdor qalamchalarni qishki payvand qilishni fevral oyining ikkinchi o'n kunligida amalga oshirish ko'chatlarning 91,9-92,7% tutuvchanligini ta'minlaydi.

Payvand qilingan komponentlar 10 kun mobaynida 20-25 °C haroratda bir hafta mobaynida nam taxta qirindsiga ko'milgan holda stratifikatsiyaga joylashtiriladi. So'ngra komponentlar doimiy joyga – ko'chatzorning ikkinchi dalasiga o'tqazilguniga qadar (mart oyining o'rtalari) istilmaydigan plyonkali issiqxonalarga ildiz qismi ko'milgan holda joylashtiriladi va tuproq nam holda saqlanadi.

Bunday usulda payvand qilinganda va umumqabul qilingan agrotexnika amalga oshirilganda gektaridan qariyb 66290 donagacha standart ko'chat olish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Analiticheskiy obzor mirovoy trgovli na rinke cheresni. – <https://epauzb.uz/post/analiticheskiy-obzor-mirovoy-torgovli-na-rynke-chereshnilangru>
2. Kichunov N.I. Dichki i podvoi dlya plodovix derevev. M. -L.: Selxozgiz, 1937. - 128 s.
3. Eryomin G.V. Podvoi kostochkovix kultur dlya intensivnix sadov. // Sadovodstvo i vinogradarstvo. 1990. -№ 3. - S.11 - 14.
4. Zemlyanov V.N. Zimnyaya privivka plodovyx kultur. – M.: Rosselxozizdat, 1977. – 80 s/
5. O'ZDST 1192:2009. Urug'li va danakli ekin ko'chatlari. Umumiy texnikaviy shartlar

